

NAMANGAN VILOYATIDA SANOATNING HUDUDIIY DIFFERENTIALLASHUVI VA IQTISODIY DETERMINANTLARI

Nuritdinov Botir Kodirxanovich

Namangan davlat universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: nbotir7676@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda Namangan viloyatida sanoatning hududiy differensiallashuvi va unga ta'sir etuvchi iqtisodiy determinantlar ekonometrik yondashuv asosida tahlil qilindi. Tadqiqot davomida investitsion faollik, mehnat resurslari salohiyati, infratuzilma ta'minoti, urbanizatsiya darajasi va bozor sig'imining sanoat rivojlanishiga ta'siri baholandi. Natijalar sanoat ishlab chiqarishi hududlar bo'yicha notekis taqsimlanganini hamda investitsiyalar va infratuzilma omillari sanoat konsentratsiyasini kuchaytirganini ko'rsatdi. Tadqiqot hududiy sanoat siyosatini takomillashtirish va iqtisodiy rivojlanishning muvozanatli modelini shakllantirish uchun ilmiy asos yaratdi.

Kalit so'zlar: sanoat, hududiy differensiallashuv, investitsiya, infrastruktura, ekonometrik tahlil, urbanizatsiya, mehnat resurslari, sanoat siyosati.

Аннотация. В исследовании был проведён эконометрический анализ территориальной дифференциации промышленности и её экономических детерминант в Наманганской области. Были оценены влияние инвестиционной активности, трудового потенциала, инфраструктурной обеспеченности, уровня урбанизации и ёмкости рынка на развитие промышленности. Полученные результаты показали неравномерность промышленного развития между территориями и подтвердили значимую роль инвестиций и инфраструктуры в формировании промышленной концентрации. Исследование способствовало обоснованию направлений совершенствования региональной промышленной политики и обеспечению более сбалансированного социально-экономического развития региона.

Ключевые слова: промышленность, территориальная дифференциация, инвестиции, инфраструктура, эконометрический анализ, урбанизация, трудовые ресурсы, промышленная политика.

Annotation. The study analyzed the territorial differentiation of industry and its economic determinants in Namangan region using an econometric approach. The effects of investment activity, labor resources, infrastructure development, urbanization, and market capacity on industrial growth were evaluated. The findings revealed significant spatial disparities in industrial development and confirmed the positive influence of investments and infrastructure on industrial concentration. The research provided a scientific basis for improving regional industrial policy and promoting more balanced economic development through effective allocation of resources and enhancement of regional competitiveness.

Keywords: industry, territorial differentiation, investment activity, infrastructure, econometric analysis, urbanization, labor resources, industrial policy.

Kirish. Hududlarning sanoat salohiyatidan samarali foydalanish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash masalasi zamonaviy mintaqaviy rivojlanish siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Sanoat korxonalarining hududiy joylashuvi ishlab chiqarish hajmi, investitsiyalar oqimi, bandlik darajasi va infratuzilma rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, hududlarning iqtisodiy raqobatbardoshligini shakllantirishda muhim o'rin egallaydi. Shu sababli sanoatning hududiy differensiallashuvi va unga ta'sir etuvchi omillarni ilmiy asosda o'rganish mintaqaviy rivojlanishning mavjud imkoniyatlarini aniqlash hamda istiqbolli yo'nalishlarini belgilashda alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda hududlarni kompleks rivojlantirish, yangi sanoat quvvatlarini yaratish, investitsiyalarni faol jalb etish va sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonlar hududlarning tabiiy, iqtisodiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanish, ishlab chiqarishning hududiy mutanosibligini ta'minlash hamda iqtisodiy faollikni rag'batlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq sanoat salohiyatining hududlar bo'yicha bir xil shakllanmayotgani, ayrim tumanlarda ishlab chiqarish va investitsiyalarning yuqori konsentratsiyalashuvi, boshqa hududlarda esa rivojlanish sur'atlarining nisbatan pastligi sanoatning hududiy xususiyatlarini chuqur tahlil qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Namangan viloyati respublikaning sanoatlashuv jarayonlari jadal kechayotgan hududlaridan biri bo'lib, unda sanoat ishlab chiqarishining hududlar kesimidagi tarkibi va rivojlanish darajasi sezilarli farqlanadi. Bu esa sanoat korxonalarining joylashuviga ta'sir etuvchi investitsion, demografik, infratuzilmaviy va bozor omillarining rolini aniqlashni talab etadi. Mazkur jihatlar hududiy iqtisodiy rivojlanishning ichki mexanizmlarini ochib berish bilan birga, sanoat siyosatini takomillashtirish uchun ham muhim ilmiy-amaliy asos yaratadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi Namangan viloyatida sanoatning hududiy differensiallashuv darajasini aniqlash, uning shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy iqtisodiy determinantlarni ekonometrik usullar yordamida baholash hamda hududiy sanoat rivojlanishini yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotning keyingi bo'limlarida avvalo mavzuga oid nazariy va empirik yondashuvlar tahlil qilinadi, so'ngra hududlar kesimidagi sanoat rivojlanish ko'rsatkichlari ekonometrik baholanadi hamda olingan natijalar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Bu mantiqiy ketma-ketlik sanoatning hududiy rivojlanish qonuniyatlarini yaxlit tizim sifatida yoritish imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Sanoat korxonalarining hududiy joylashuvi mintaqaviy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi, ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish samaradorligi va hududlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda sanoat ishlab chiqarishini hududlar bo'yicha oqilona joylashtirish iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish, logistika xarajatlarini minimallashtirish, investitsion jozibadorlikni oshirish hamda hududlararo ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni qisqartirishning muhim sharti sifatida namoyon bo'lmoqda.

Jahon amaliyotida sanoat korxonalarining hududiy joylashuvini tadqiq etish masalalari klassik joylashtirish nazariyalaridan boshlab zamonaviy fazoviy iqtisodiyot konsepsiyalarigacha keng o'rganilgan. Xususan, A. Veberning sanoatni joylashtirish nazariyasida transport xarajatlari, mehnat resurslari va aglomeratsiya omillari ishlab chiqarish korxonalarini joylashtirishning asosiy determinantlari sifatida e'tirof etilgan [1]. Keyinchalik M. Porterning klaster nazariyasi, P. Krugmanning yangi iqtisodiy geografiya konsepsiyasi hamda aglomeratsiya iqtisodiyoti yondashuvlari sanoatning hududiy rivojlanishiga bozor sig'imi, infratuzilmaviy ta'minlanganlik, innovatsion muhit va institutsional omillarning sezilarli ta'sir ko'rsatishini ilmiy jihatdan asoslab berdi [2].

Sanoatni hududiy tashkil etish jarayonlariga raqamlashtirish, logistika tizimlarining takomillashuvi, investitsion muhit va infratuzilma sifati kabi omillarning ta'siri yanada kuchaydi. Jahon iqtisodiy forumining "Future of Industrial Regions" hisobotida ta'kidlanishicha, raqamli infratuzilmaning rivojlanganligi, transport-kommunikatsiya tizimlarining integratsiyalashganligi va investitsion faollik darajasi sanoat korxonalarining hududiy joylashuv samaradorligini belgilovchi ustuvor omillar hisoblanadi [3]. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, sanoat korxonalarining optimal joylashuvi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, mahsulot raqobatbardoshligini oshirish va hududiy iqtisodiy o'sishni jadallashtirish imkonini beradi.

OECDning "Industrial Transitions in Regions" hisobotida hududiy sanoat siyosatini shakllantirishda transport infratuzilmasi, mehnat bozori salohiyati, urbanizatsiya darajasi va investitsiya oqimlarini hisobga olish zarurligi qayd etilgan [4]. Mazkur omillar ishlab chiqarishning fazoviy tashkil etilishiga bevosita ta'sir ko'rsatib, mintaqalarning iqtisodiy ixtisoslashuvi va sanoat salohiyatining shakllanishini belgilaydi.

O'zbekistonda ham hududlarni kompleks sanoatlashtirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish va sanoatni hududlar bo'yicha mutanosib rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida hududlarning mavjud resurs salohiyatidan samarali foydalanish, sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish va yangi sanoat zonalarini rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [5]. Bu esa sanoat korxonalarini joylashtirishga ta'sir etuvchi omillarni chuqur ilmiy tadqiq etish zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Namangan viloyati respublikaning sanoat salohiyati yuqori bo'lgan hududlaridan biri hisoblanib, unda sanoat korxonalarining tumanlar kesimida notekis joylashuvi kuzatiladi. Ayrim tumanlarda sanoat korxonalari yuqori darajada konsentratsiyalashgan bo'lsa, ayrim hududlarda sanoatlashtirish darajasi nisbatan pastligicha qolmoqda. Mazkur holat sanoat korxonalarining hududiy joylashuviga ta'sir etuvchi investitsiyalar hajmi, mehnat

resurslari, infratuzilma ta'minoti, urbanizatsiya darajasi va bozor sig'imi kabi omillarni ekonometrik usullar asosida baholash zaruratini yuzaga keltiradi.

Empirik tahlillar 2020–2025-yillar uchun Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida amalga oshirildi. Tadqiqot natijalarini ilmiy asoslash maqsadida hududlar bo'yicha sanoat mahsulotlari hajmi, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsuloti, ularning o'sish sur'atlari hamda tarmoq tarkibidagi ulush ko'rsatkichlari tizimli ravishda tahlil qilindi. Olingan natijalar sanoat ishlab chiqarishining hududiy konsentratsiyalashuv darajasi, iqtisodiy o'sish qutblarining shakllanish xususiyatlari va tumanlararo tafovutlarning dinamikasini aniqlash imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari hajmi dinamikasi 2020–2025 yillar davomida viloyat bo'yicha barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Umumiy ishlab chiqarish hajmi 11011,9 mlrd so'mdan 40087,4 mlrd so'mgacha oshib, sanoat sektorining tezkor kengayishi kuzatilgan. Bu o'sish asosan Namangan shahri va To'raqo'rg'on tumanida yuqori konsentratsiyalashgan bo'lib, ular viloyat sanoat ishlab chiqarishining asosiy drayverlari sifatida shakllangan. Xususan, Namangan shahrida ishlab chiqarish hajmi 4356,5 mlrd so'mdan 11975,8 mlrd so'mga yetib, urban sanoat aglomeratsiyasi kuchayganini ko'rsatadi. To'raqo'rg'on tumanida esa 1545,1 mlrd so'mdan 6632,3 mlrd so'mgacha o'sish qayd etilib, ishlab chiqarishning klasterlashuvi va investitsion faollik yuqoriligi bilan izohlanadi.

1-jadval

Namangan viloyati hududlarida sanoat mahsulotlari hajmining dinamikasi, mlrd. so'm¹¹¹

Hududlar nomi	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2025-yil
Namangan vil.	11011,9	14695,1	18120,5	21906,8	31696,2	40087,4
Namangan sh	4356,5	6091,0	7052,1	8174,6	10609,3	11975,8
Mingbuloq	545,7	623,6	751,0	648,5	540,4	980,3
Kosonsoy	314,4	589,9	970,2	1366,2	1843,3	1831,5
Namangan	1036,3	949,5	1062,4	1186,0	1915,4	1936,0
Norin	316,2	435,4	233,1	300,7	367,4	677,6
Pop	506,2	439,5	545,3	523,7	755,4	989,5
To'raqo'rg'on	1545,1	2511,8	3368,4	4871,9	5875,9	6632,3
Uychi	640,8	891,3	1028,1	1258,1	1609,4	2058,8
Uchqo'rg'on	782,2	834,7	951,6	801,2	969,4	1030,6
Chortoq	187,2	282,5	394,8	538,8	699,3	1063,0
Chust	584,0	801,1	1483,6	1920,9	2491,5	3251,2
Yangiqo'rg'on	197,3	244,9	279,9	316,3	485,5	579,1

Biroq hududlar o'rtasida sezilarli differentsiatsiya saqlanib qolgan. Kosonsoy, Pop va Norin tumanlarida o'sish sur'atlari nisbatan beqaror bo'lib, ayrim yillarda pasayish tendensiyalari kuzatiladi, bu esa infratuzilma cheklovlari va investitsion

¹¹¹ Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

oqimlarning notekis taqsimlanganligini anglatadi. Mingbuloq tumani eng past ko'rsatkichlarga ega hududlardan biri bo'lib qolmoqda, bu uning sanoat bazasi sust rivojlanganligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, Chortoq va Yangiqo'rg'on tumanlarida so'nggi yillarda ijobiy dinamikaning kuchayishi hududiy diversifikatsiya jarayonlarining bosqichma-bosqich kengayayotganini ko'rsatadi.

2-jadval.

Namangan viloyatida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotining o'sish sur'ati, foiz¹¹²

Hududlar nomi	Ishlab chiqaradigan sanoat	To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	Kiyim ishlab chiqarish	Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish
Namangan vil.	100	100	100	100
Namangan sh	29,7	28,3	28,9	25,3
Mingbuloq	2,9	8,6	1,2	1,0
Kosonsoy	5,5	16,1	1,5	1,7
Namangan	5,5	5,6	10	1,5
Norin	2,0	0,3	1,9	1,2
Pop	2,5	0,5	3,2	0,8
To'raqo'rg'on	7,1	13,7	20,1	0,9
Uychi	6,2	7,8	3,4	56,9
Uchqo'rg'on	2,9	6,3	0,8	0,5
Chortoq	3,2	0,2	2,6	0,6
Chust	9,5	2,8	12,3	1,4
Yangiqo'rg'on	1,7	0,3	2,1	1,1

3-jadval ma'lumotlari Namangan viloyatida aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining tarmoq kesimidagi hududiy ixtisoslashuvi sezilarli darajada differensiyalashganligini ko'rsatadi. Umumiy sanoat ishlab chiqarishida Namangan shahri yetakchi o'rinni egallab, viloyat ko'rsatkichining 29,7 foizini tashkil etadi. Chust 9,5 foiz, To'raqo'rg'on 7,1 foiz, Uychi 6,2 foiz, Kosonsoy va Namangan tumanlari har biri 5,5 foiz ulush bilan sanoat ishlab chiqarishida nisbatan yuqori o'ringa ega.

Tarmoqlar kesimida hududiy ixtisoslashuv aniq namoyon bo'ladi. To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda Namangan shahri 28,3 foiz va To'raqo'rg'on tumani 13,7 foiz ulush bilan yetakchi o'rinlarni egallaydi, Kosonsoy tumanining ulushi esa 16,1 foizni tashkil etadi. Kiyim ishlab chiqarishda To'raqo'rg'on tumani ustun mavqega ega bo'lib, uning ulushi 20,1 foizga teng. Chust 12,3 foiz hamda Namangan tumani 10,0 foiz ulush bilan ushbu yo'nalishda muhim sanoat markazlari hisoblanadi.

Namangan viloyati hududlarida sanoat rivojlanishining kompozit indeksi natijalari hududiy iqtisodiy tizimning fazoviy geterogenligini va markaz-periferiya modelining shakllanganligini ko'rsatadi. Eng yuqori qiymat Namangan shahrida $CI=0,91$ ni tashkil etib, ushbu hudud ishlab chiqarish hajmi, tarmoq

¹¹² Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

diversifikatsiyasi va fazoviy konsentratsiya darajasi bo'yicha yetakchi o'ringa ega. To'raqo'rg'on

CI = 0,84, Chust CI = 0,79 va Kosonsoy CI = 0,76 ko'rsatkichlari bilan ikkilamchi o'sish markazlari sifatida ajralib turadi. Ushbu hududlarda aglomeratsion samaralar va investitsion faollikning nisbatan barqarorligi kuzatiladi. Norin CI = 0,42, Uchqo'rg'on CI = 0,40, Chortoq CI = 0,38 va Mingbuloq CI = 0,41 ko'rsatkichlari bilan tavsiflanib, bu hududlarda ishlab chiqarish tizimining parchalanish darajasi yuqori, tarmoq diversifikatsiyasi cheklangan va fazoviy izolyatsiya nisbatan kuchli ekanligini ifodalaydi. Mazkur holat hududlar o'rtasida iqtisodiy resurslar hamda ishlab chiqarish imkoniyatlarining notekis taqsimlanganligi bilan tavsiflanadi.

3-jadval.

Namangan viloyati hududlarida sanoat rivojlanishining kompozit indeksi¹¹³

Hududlar nomi	CI (0–1)	Rivojlanish darajasi	Fazoviy rol
Namangan sh	0.91	Juda yuqori	Markaziy o'sish qutbi
To'raqo'rg'on	0.84	Juda yuqori	Industrial klaster
Chust	0.79	Yuqori	Diversifikatsiyalashgan zona
Kosonsoy	0.76	Yuqori	O'suvchi periferik markaz
Uychi	0.63	O'rtacha-yuqori	Barqarorlashayotgan zona
Yangiqo'rg'on	0.55	O'rtacha	Boshlang'ich industriallashuv
Namangan t	0.52	O'rtacha	Transformatsion hudud
Pop	0.48	Past-o'rtacha	Zaif industrial baza
Mingbuloq	0.44	Past	Resurs cheklangan zona
Norin	0.42	Past	Strukturaviy stagnatsiya
Uchqo'rg'on	0.40	Past	Past diversifikatsiya
Chortoq	0.38	Past	Fragmentatsiyalashgan rivojlanish

Kompozit indeksning tarkibiy komponentlari tahlili sanoat rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar investitsion faollik, tarmoq diversifikatsiyasi va fazoviy spillover mexanizmlari ekanligini ko'rsatadi. Yuqori indeksli hududlarda $CI \geq 0,75$ iqtisodiy faoliyatning hududiy jamlanishi kuchli bo'lib, bu ishlab chiqarish samaradorligining oshishi va tranzaksion xarajatlarning kamayishi bilan tavsiflanadi. Past indeksli hududlarda $CI \leq 0,45$ "past o'sish tuzog'i" belgilari kuzatilib, bu holat kapital yetishmovchiligi bilan bir qatorda institutsional va infratuzilmaviy cheklovlar bilan ham bog'liqdir. Natijalar hududlar o'rtasida spatial dependence mavjudligini hamda spillover effektlar bir xil darajada namoyon bo'lmashini ko'rsatadi. Bu esa hududiy rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda differensial yondashuvlarni qo'llash zarurligini anglatadi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari Namangan viloyatida sanoat rivojlanishining hududlar kesimida turlicha shakllanayotganini hamda ushbu jarayonga investitsion faollik, mehnat resurslari salohiyati, transport-kommunikatsiya infratuzilmasi, urbanizatsiya darajasi va bozor sig'imi kabi omillar sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. O'tkazilgan tahlillar sanoat ishlab

¹¹³ Manba: muallif ishlanmasi

chiqarishining ayrim hududlarda yuqori darajada jamlanganini, shu bilan birga boshqa tumanlarda ham mavjud iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish uchun yetarli imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatdi.

Tadqiqot davomida Namangan shahri, To'raqo'rg'on, Chust va Kosonsoy tumanlari sanoat rivojlanishining yetakchi markazlari sifatida shakllangani aniqlandi. Ushbu hududlarda investitsiya faolligining yuqoriligi, ishlab chiqarish infratuzilmasining nisbatan rivojlanganligi va iqtisodiy resurslarning samarali uyg'unlashuvi sanoat o'sishining muhim omillari bo'lib xizmat qilgan. Shu bilan birga, sanoat rivojlanish sur'atlari nisbatan past bo'lgan hududlarda iqtisodiy faollikni rag'batlantirish, ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish va investitsiya jozibadorligini oshirish orqali yangi o'sish nuqtalarini shakllantirish imkoniyatlari mavjudligi aniqlandi.

Ekonometrik baholash natijalari investitsiyalar hajmi, iqtisodiy faol aholi ulushi va infratuzilma ta'minoti sanoat korxonalarining hududiy joylashuvi hamda rivojlanishida asosiy determinantlar ekanligini ko'rsatdi. Bu holat hududiy sanoat siyosatini ishlab chiqishda iqtisodiy resurslarni manzilli va samarali yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi. Tahlillar sanoatning hududiy ixtisoslashuvi va klasterlashuv jarayonlari viloyat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilayotganini ko'rsatdi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, hududlarning sanoat salohiyatini muntazam baholab borish maqsadida investitsion faollik, infratuzilma sifati, mehnat resurslari va bozor imkoniyatlarini o'zida mujassamlashtiruvchi integral baholash tizimini amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir. Sanoat rivojlanishi nisbatan past bo'lgan tumanlarda ishlab chiqarish infratuzilmasini modernizatsiya qilish, kichik sanoat zonalarini faoliyatini kengaytirish, logistika imkoniyatlarini yaxshilash va xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish hududiy iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, tumanlararo ishlab chiqarish kooperatsiyasini rivojlantirish, sanoat klasterlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish hududlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlaydi va sanoat rivojlanishining yanada barqaror hamda muvozanatli modelini shakllantirishga yordam beradi. Kelgusida fazoviy ekonometrik yondashuvlar asosida hududlararo o'zaro ta'sirlarni chuqurroq o'rganish sanoat rivojlanishining hududiy xususiyatlarini yanada aniqroq baholash va samarali boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Weber, A. Theory of the Location of Industries. Chicago: The University of Chicago Press, 1929. – 256 p.
2. Krugman, P. Geography and Trade. Cambridge, MA: MIT Press, 1991. – 142 p.
3. World Economic Forum. Future of Industrial Clusters and Regional Competitiveness. Geneva: WEF, 2024.

4. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). Industrial Transitions in Regions: Bridging Growth and Inclusiveness. Paris: OECD Publishing, 2022.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>